QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

MUQADDAS BIBI MARYAM HIMOYASI NOMIDAGI (POKROV) PRAVOSLAV CHERKOVINING QURILISHI TARIXI

https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.107

Abduvaxidov Dilshod Narbotirovich, *PhD doktorant,*
SamDU, Samarqand, O’zbekiston.
e-mail: norbotirovich@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muqaddas Bibi Maryam himoyasi (Pokrov) nomidagi cherkovning qurilish tarixi, uning vujudga kelish omillari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda cherkovning barpo etilish jarayoni, moliyaviy ta’minoti, me’moriy xususiyatlari va uning mahalliy pravoslav jamoasi hayotidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, cherkov qurilishi bilan bog’liq tashabbuskor shaxslar, ruhoniylar faoliyati hamda Toshkent va Turkiston yeparxiyasining diniy-ma’rifiy siyosati masalalari ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar. Pokrov cherkovi, Muqaddas Xudo, pravoslav cherkovlari, Samarqand, Toshkent va Turkiston yeparxiyasi, Rossiya imperiyasi, diniy me’morchilik, sovet davri, diniy meros.

Kirish.XIX asrning ikkinchi yarmida Samarqand shahri Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, hududda ma’muriy, harbiy va diniy infratuzilmani shakllantirish jarayoni boshlangan edi. Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilishi bilan yangi shahar qismi barpo etildi va u imperiya siyosiy-harbiy manfaatlariga xizmat qiluvchi urbanistik makonga aylandi. Ushbu jarayon pravoslav diniy muassasalarining paydo bo’lishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog’liq bo’lib, ular imperiyaning mustamlakachilik siyosatida muhim ideologik vosita sifatida namoyon bo’ldi. Samarqandda dastlab harbiy cherkovlar faoliyat yuritgan bo’lsa-da, XIX asr oxiriga kelib shahardagi pravoslav aholining keskin ortishi fuqarolik cherkovini tashkil etish zaruratini tug’dirdi. Mazkur ehtiyoj natijasida XX asr boshlarida Muqaddas Bibi Maryam himoyasi (Pokrov) nomidagi cherkov-maktab majmuasi barpo etildi. Ushbu inshoot nafaqat diniy markaz, balki ta’lim maskani sifatida ham faoliyat yuritib, imperiyaning ma’naviy-ma’rifiy siyosatini amalga oshirishda muhim o’rin tutdi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Turkistondagi pravoslav cherkovlari tarixi ko’pincha umumiy imperiya siyosati kontekstida o’rganilgan bo’lib, alohida ibodatxonalar tarixining mahalliy arxiv materiallari asosida kompleks tadqiqi yetarli darajada amalga oshirilmagan. Xususan, Samarqanddagi Pokrov cherkovining qurilishi, moliyalashtirilishi, me’moriy

xususiyatlari, cherkov-maktab sifatidagi faoliyati hamda sovet davridagi transformatsiyasi masalalari ilmiy jihatdan tizimli yoritilmagan. Tadqiqotning maqsadi — Samarqand shahridagi Muqaddas Bibi Maryam himoyasi (Pokrov) nomidagi cherkovning tashkil topishi va rivojlanish tarixini arxiv hujjatlari, statistik ma’lumotlar hamda davriy matbuot materiallari asosida ilmiy tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Turkiston o’lkasida pravoslav cherkovlari tarixi masalasi tarixshunoslikda bir necha bosqichda yoritilgan bo’lib, ularni shartli ravishda imperiya davri, sovet davri va zamonaviy tadqiqotlar bosqichlariga ajratish mumkin.

1. Imperiya davri manbalari va tadqiqotlari. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o’lkasi hududida pravoslav cherkovlari faoliyati asosan statistik to’plamlar, ma’muriy hisobotlar va yeparxiya nashrlarida aks etgan. Xususan, Samarqand viloyati statistika qo’mitasi tomonidan nashr etilgan ma’lumotnomalar, “Spravochnaya kniga Samarkandskoy oblasti” kabi to’plamlar cherkovlar soni, moliyalashtirish manbalari, ruhoniylar tarkibi va cherkov-maktablar faoliyati haqida muhim faktologik ma’lumotlar beradi. Bu davr adabiyotlarida pravoslav cherkovlari imperiyaning “ma’rifiy missiyasi” doirasida talqin qilinib, ularning mustamlaka boshqaruvidagi ideologik ahamiyati ochiq ko’rsatilmagan. Shunga qaramay, mazkur manbalar Pokrov cherkovi qurilishi, mablag’ ajratilishi va rasmiy tasdiqlash jarayonini o’rganishda birlamchi ahamiyatga ega.

2. Sovet davri tarixshunosligi. Sovet davrida pravoslav cherkovlari tarixi asosan ateistik mafkura nuqtai nazaridan yoritildi. Rus pravoslav cherkovi faoliyati “reaksion institut” sifatida talqin qilinib, uning ijtimoiy roli salbiy baholandi. Turkistondagi cherkovlar masalasi ko’proq yopilish jarayoni, diniy mulklarning musodara qilinishi va ruhoniylarning ta’qib qilinishi kontekstida o’rganildi. Biroq sovet davrining arxiv hujjatlari, jumladan viloyat davlat arxivlari fondlari, cherkovlarning yopilishi, hududlarning qisqartirilishi va diniy binolarning qayta ixtisoslashtirilishi haqida muhim empirik materiallarni o’z ichiga oladi. Ushbu manbalar Pokrov cherkovining 1920–1930-yillardagi faoliyati va boshqa cherkovlar yopilgan sharoitda saqlanib qolish omillarini tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, sovet davrida mahalliy tarixiy-me’moriy tadqiqotlarda diniy inshootlar ko’proq arxitektura yodgorligi sifatida o’rganilgan bo’lib, ularning konfessional va ijtimoiy funksiyasi yetarli darajada yoritilmagan.


3. Zamonaviy tadqiqotlar. Mustaqillikdan keyingi davrda O’zbekiston tarixshunosligida diniy merosni qayta baholash jarayoni boshlandi. Pravoslav cherkovlari tarixi endilikda madaniy meros va konfessional tarixning tarkibiy qismi sifatida ko’rib chiqilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda Turkistonning ko’p konfessiyali muhiti, diniy bag’rikenglik an’analari va urbanistik rivojlanish jarayonlari doirasida pravoslav ibodatxonalari ham o’rganilmoqda. Biroq, ko’plab tadqiqotlar umumiy xarakterga ega bo’lib, alohida ibodatxonalar tarixini mikrohistorik yondashuv asosida kompleks tahlil qilish yetarli emas. Samarqanddagi Muqaddas Bibi Maryam himoyasi (Pokrov) nomidagi cherkovi misolida qurilish tashabbusi, moliyalashtirish mexanizmlari, cherkov-maktab tizimi, sovet davridagi

transformatsiya va mustaqillikdan keyingi tiklanish jarayonlari bir butun tarixiy jarayon sifatida kam o’rganilgan. Shuningdek, zamonaviy rus tadqiqotchilarining ishlari (masalan, missionerlik va yeparxiya tarixi bo’yicha tadqiqotlar) asosan konfessional nuqtai nazardan yozilgan bo’lib, mintaqaviy ijtimoiy-siyosiy kontekst yetarli darajada tahlil qilinmaydi.

Tahlil va natijalar

Samarqand shahrida xristianlik, xususan pravoslav oqimiga taaluqli bo’lgan cherkov binolari ko’p. Hozirgi manzili Husayn Boyqaro ko’chasi, 24 uyda ko’rsatilgan Muqaddas Bibi Maryam himoyasi nomidagi (Pokrov) pravoslav cherkovi ham shular jumlasidandir. 1870 yilda Turkiston general-gubernatori K.P.Fon-Kaufman Samarqandning “yangi” shahar qismini rivojlantirish rejasini tasdiqladi. Shu bilan birga, uning mahalliy aholidan qurilish uchun yer uchastkalarini olishga ruxsat beruvchi farmon chiqarildi [1;33]. Shahar qal’asining janubi-g’arbiy qismida va asosan bog’lar va dashtlar joylashgan eski shaharda yangi ma’muriyat yer sotib olishni boshladi. Odamlarni Turkistonda yashashga qiziqtirish, yangi kelganlarning asosiy kontingenti harbiylar bo‘lganligi uchun iste’fodagi askarlarga alohida shartlar asosida maxsus yer uchastkalari ajratilgan. Shunday qilib, hozirgi Yopiq bozor hududida, Kattaqo’rg’on yo’lining ikki tomonida (Mirzo Ulug’bek ko’chasi) birinchi uylar paydo bo’la boshladi, ular o’sib, o’sha davrdagi Soldatskaya yoki Artilleriya posyolkasini tashkil qildi. 1872 yilga kelib, bu hududda 110 ta turar-joy binolari mavjud edi. Ushbu hududdagi ko’chalarning birinchi nomlari - Barbetnaya, Djamskaya, Esplanadnaya va Kladbishenskaya deb nomlangan.

Yangi shahar qurilishi bosqichma-bosqich va puxta o’ylangan holda amalga oshirildi. 1875 yilda Samarqand shahrini qurishning Bosh rejasi allaqachon ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Ushbu rejaga ko’ra, asosiy ma’muriy va harbiy binolar Abramovskiy bulvari yaqinida to’planishi va shimoliy tomonda, asosan, turar-joy va turar-joy binolari bloklari qurilishi kerak edi.


ВЕДОМСТВО ПРАВОСЛАВНАГО ИСПОВѢДАНІЯ

Господину Туркестанскому Генералъ-Губернатору.

ГОСУДАРЬ ИМПЕРАТОРЪ, по всеподданнѣйшему докладу Обер-Прокурора Св.Синода коллежскаго Вашего Превосходительства объ отказѣ казны въ постройку церкви-школы въ г. Самаркандѣ, въ 12 день сего Марта ВСЕМИЛОСТИВѢЙШЕ соизволилъ повелѣть на означенный предметъ отъ МОНАРШИХЪ щедротъ 3 /т. рублей.

О такомъ МОНАРШЕМЪ пожертвованіи имѣю честь увѣдомить Васъ, Милостивый Государь, присовокупляя, что деньги могутъ быть препровождены въ Туркестанскую духовную Консисторію.

Товарищъ Обер-Прокурора Святѣйшаго Синода, Сенаторъ

Директоръ


Рис. 33. Самарканд. Покровский собор. 1905 г.

Bu orada shaharning Soldatskaya ko’chasi hududi tez sur’atlar bilan o’sib bordi va tabiiyki, o’sha paytda hududda pravoslav cherkovini qurish zarurati tug’ildi. Buni 1900 yildan keyin Muqaddas Sinodga yuborilgan deyarli barcha yeparxiya hisobotlaridagi asosiy

ko’tarilgan mavzu shaharda tinch aholi uchun yangi cherkovlar ochish haqidagi so’rovnomalarda ko’rish mumkin. 1904–1905 yillarda Barbetnaya va Nikolaevskaya ko’chalari kesishmasida Xudoning onasining himoyasi bayramiga bag’ishlangan cherkov qurildi [2;48].

1890-yillarning o’rtalariga kelganda Samarqandda pravoslavlar soni 10 ming kishidan oshgan bo’lsa-da, shaharda yeparxiya bo’limiga qarashli, birorta ham fuqarolik cherkovi yo’q edi (shu davrgacha qurilgan cherkovlar mavjud bo’lsada ular harbiy cherkovlar bo’lgan). Turkiston yepiskopi o’sha paytda V. Arkadiy (Karpinskiy), Samarqand viloyatining harbiy gubernatori general-leytenant V.Y. Medinskiy edi. Viloyat ma’muriyati tegishli mablag’ yo’qligi sababli yangi cherkov qurilishida yordam bera olmadi. Shu sababli, oqibatda eng yuqori diniy tashkilot – Muqaddas Sinodga murojaat qilishdan boshqa chora qolmadi.

Shaharda yangi fuqarolik cherkovi qurilishi borasidagi harakatlar 1902-yil 21-mayda Turkiston general-gubernatori N. A. Ivanov (Samarqandning sobiq gubernatori) Sankt-Peterburgda, Muqaddas Sinod bosh prokurori V.K. Sablerga ariza bilan murojaat qilishidan boshlandi. Ushbu arizada u V.K. Sablerga Ashxobodda qilingan ishlar misolida Samarqandda ham cherkov maktabi qurish zarurligini tushuntirdi va shuningdek, undan ushbu qurilish uchun 10 000 rubl ajratishni va "bu masalani ijobiy hal qilishga yordam berishni" so‘radi. Shunga o’xshash mazmundagi ikkinchi xat esa Verniy shahriga, Turkiston va Toshkent yepiskopi Arkadiyga ham yuborildi. Ushbu xatda undan Samarqandda cherkov qurilishida yordam berishini so’ralgan va bunga javoban Yepiskop Arkadiy darhol Muqaddas Sinodga iltimosnoma bilan murojaat qildi.

Ko’p o’tmay, V.K.Sabler yozma javobida Muqaddas Sinod qoshidagi Maktab Kengashi arizani ko’rib chiqqanini va ushbu cherkov-maktabning qurilishi faqat Samarqandda cherkovlarning yo’qligi va u yerdagi ko’p sonli pravoslav aholisi tufayli zarur bo’lganini hisobga olib, uning qurilishida ishtirok etish mumkin deb hisoblaganini xabar qildi. Ushbu loyihani yanada rivojlantirish uchun Samarqand cherkov maktabi uchun smeta va loyihani Sankt-Peterburgga yuborish kerak edi. Shu orada Kaspiyorti viloyati markazi bo’lgan Ashxabodda Muqaddas Xoch cherkov maktabi qurilgandi. Aynan ushbu cherkovning chizma va smetalari Samarqanddagi bo’lajak quriladigan maktab-cherkov uchun asos sifatida foydalaniladigan bo’ldi. Qurilish ishlariga esa Turkiston general-gubernatori N.A.Ivanovning buyrug’i bilan mintaqadagi qurilish sohasidagi maxsus topshiriqlar bo’yicha amaldori, muhandis V.S.Geyntselmanga topshirildi. Bir oy o’tgach, 1902-yil oktyabr oyida V.S.Geyntselman yangi cherkovning loyiha va smeta ishlab chiqdi va ko’rib chiqish uchun Turkiston general-gubernatoriga taqdim etdi. Yangi tayinlangan yepiskop Paisiy (Vinogradov) esa shahar harbiy gubernatoriga cherkov qurish uchun davlat yer uchastkasini ajratish iltimosi bilan shaxsan murojaat qildi.

1903 yil iyun oyida yangi cherkov loyihasi allaqachon Sankt-Peterburgda Muqaddas Sinodning Qurilish komissiyasi tomonidan ko’rib chiqilgan va kichik tuzatishlar bilan tasdiqlangan. Ko’p o’tmay – 1904 yil mart oyida Muqaddas Sinod bosh prokurori imperator

Nikolay II ga hisobot berib, unga Turkiston general-gubernatorining Samarqandda cherkov-maktab qurishda yordam so’ragan iltimosnomasini yetkazadi. Imperator hisobotni tinglab, ushbu ish uchun qirollik xazinasidan 3 ming rubl berishga rozi bo’ladi. Shoh ehsoni Turkiston ma’naviyat yig‘iniga g’aznasiga o‘tkazildi va u cherkov qurilishi uchun yig‘ilgan mablag‘larning asosini tashkil etdi.

Endi navbatdagi masala – yangi ibodatxonani qurish uchun joyni qaerdan ajratish kerakligida edi. Shahar kengashi dastlab Samarqand shahrining Chernyayevskaya ko’chasida, keyinchalik polyak (katolik) cherkovi qurilgan yer uchastkasida cherkov-maktab qurishni rejalashtirgan. Ammo, oxir-oqibat shaharning shimolida, imperiya askarlari turar joylarining orqa tomonida cherkov qurishga qaror qilindi.

1904 yil aprel oyida Cherkov qurilish qo’mitasi tuzildi va uning tarkibiga:

- Qo’mita raisi - general-mayor Chernevskiy,
- A’zolar: Samarqand uyezdi boshlig’i, polkovnik V. Chertov.
- Samarqand politsiyasi boshlig’I, podpolkovnik Borodin,
- Samarqand erkaklar gimnaziyasining huquq fani o’qituvchisi, ruhoniy A. Korotun.
- Viloyat arxitektori I.P. Lebedev (lekin cherkovni qurish bo’yicha barcha hujjatlarda viloyat muhandisi E. Dubrovinning ismi va imzosi ko’rsatilgan),
- Kotib maslahatchisi Ya.A. Aristarxov.

Dastlab, cherkov binosi loy g’ishtdan qurilishi rejalashtirilgan edi. Ammo qurilish ishlari boshlanishidan oldin, ma’bad qurilishi pishgan g’ishtdan qurilishi kerakligi haqida g’oya tug’ildi va buning uchun ma’muriyatning roziligini olindi. 1904 yil bahorida qurilish qo’mitasi zudlik bilan qurilish materiallarini tayyorlashga kirishdi. Turkiston va Toshkent yepiskopi Paisiyning duosi bilan, 1904-yil 27-iyun kuni – Avliyo Sampson bayramida, Samarqand dekani, protoirey D. Voznesenskiy tomonidan kelajakdagi cherkov uchun poydevor toshi qo’yildi. O’sha yilning oktyabr oyiga kelib, cherkovning devori va ruhoniylar xonalari allaqachon qurib bitkazilgan va qo’ng’iroq minorasi esa yarmi ko’tarilib qolgan edi. 1905-yil may oyida ruhoniy V. Motalev qurilayotgan cherkovning rektori etib tayinlandi. Unga cherkovni muqaddaslash uchun tayyorlash va uni barcha zarur narsalar bilan ta’minlash vazifasi yuklatildi. Qurilish, rejalashtirilganidek, 1905-yil 1-avgustga qadar to’liq yakunlandi. Turkiston ma’naviy konsistoriyasining 9-avgustdagi farmoni bilan N. Burov cherkov bosh ruhoniysiga yordamchi sifatida tayinlandi. U 1905-yil 1-oktabrda diakon etib tayinlandi. Cherkovning qo’ng’iroq minorasi balandligi 31,5 arshin, tepasida xoch bilan qoplangan.

Yangi ibodatxona 1905 yil 30 sentyabrda birinchi rektor, ruhoniy V. Motalev ishtirokida “Xudo onasini himoya qilish” bayramini nishonlash arafasida tantanali ravishda muqaddas qilindi. Shu bilan birga, Nikolay II ga telegramma yuborilib, unda ibodatxonaning ochilishi haqida xabar berib minnatdorchilik bildirishdi. Cherkov tez sur’atlarda qurilayotgan

bo’lsa-da, viloyat gubernatori N.A. Ivanov ham, yepiskop Arkadiy ham shu vaqt ichida vafot etishdi.

Dastlab cherkov va uning nomi muqaddas Viktorga bag’ishlanishi rejalashtirilgan edi. Viloyat gubernatori Ivanov esa cherkovga sobiq gubernator va ushbu cherkov g’oyasi muallifi V. Medinskiy nomini berishni iltimos qiladi. Biroq ibodat qiluvchilar shahar hokimiyati va yepiskop Paisiydan “Xudoning onasini himoya qilish” bayrami sharafiga uni nomlashni so’rashga qaror qilishdi. Ularning iltimosi oxir-oqibat eshitildi va qondirildi. Bu to’g’risida matbuotda ham ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, 1905-yil 21-sentabrda “Turkiston gazeti” “Samarqand” gazetasiga tayanib yozadi: – Kuni kecha shahar mablag’lari evaziga qurilgan maktab-cherkovning so’nggi ishlari yakunlanmoqda. Bundan xursand bo’lmaslik mumkin emas. Avliyo Georgiy harbiy cherkovining kichik sig’imi tufayli endi oddiy odamlar ibodatxonadan tashqarida emas, balki uning ichida bemalol ibodat qilishlari mumkin… Shahar aholisining xohishidan farqli o’laroq, ular cherkov-maktabni avliyo Viktor nomi bilan atamoqchi bo’lishdi. Ammo cherkov a’zolari Turkiston va Toshkent yepiskopi hazrat Paisiyga uni Muqaddas Xudo Onasining himoyasi (Pokrov) sharafiga bag’ishlash uchun murojaat qilishdi… Savdogar V.P.Tumanov cherkovning homiysi etib saylandi”. Vasiliy Parfenovich Tumanov dehqon oilasidan bo’lib samarqandlik savdogar edi. Uni yangi qurilgan cherkovdan unchalik uzoq bo’lmagan joyda o’z uyi va poyabzal va galanteriya sotadigan shaxsiy do’koni bor edi. V.P.Tumanov 1905 yilda ibodatxonaga 150 rubllik asbob bilan kumush kosa sovg’a qildi. 1906 yilda uning sa’y-harakatlari bilan esa Muqaddas Injil kitoblari uchun yana 150 rubl yig’ildi. 1909 yilda u kitob javonlari uchun 500 rublga yaqin pul yig’di. Hatto 1911 yil dekabr oyida V.P.Tumanov imperator Nikolay II tomonidan ma’naviy sohadagi xizmatlari uchun oltin medal bilan taqdirlandi. Shuningdek, u Muqaddas Sinodning sertifikatlari va “G’ayrati uchun” yozuvi bo’lgan kumush medal, shuningdek, Qizil Xoch jamiyatiga qilgan xayr-ehsonlari uchun kumush medal bilan taqdirlangan.

Moskvadan olib kelingan yangi ikki qavatli ikonostaz Avliyo Viktor cherkovi uchun mo‘ljallangan edi, lekin uning nomi o‘zgarganligi sababli avliyo Viktor ikonasi olib tashlandi. Buning o’rniga, Muqaddas Bibi Maryam himoyasi belgisi bo’lgan ikona qo’yildi. Pravoslav cherkovlariga umumiy xos bo’lgan belgi – ya’ni qo’ng’iroqlarning o’rnatilishi ushbu cherkovda 1906 yilda boshlandi. Jami 5 ta qo’ng’iroq cherkovga o’rnatildi. Eng katta qo’ng’iroqning og’irligi 62 kilogramm, ikkinchisi 23 kilogramm, uchinchisi 3 kilogramm va 3 kilogramm (bu kungacha saqlanib qolgan yagona), to’rtinchisi 1 kilogramm, beshinchisi esa 21 kilogramm edi.

Muqaddas Bibi Maryam himoyasi nomidagi (Pokrov) cherkov Samarqand shahardagi birinchi, keyin esa yagona noharbiy cherkov edi. Uning joylashuvi uchun deyarli butun blok ajratilgan. Dastlabki ko’rinishida cherkovning hududi hozirgisidan bir necha baravar katta va turli xil konturlarga ega edi. Ibodatxonaning o’ziga qo’shimcha ravishda, yaqin atrofda binolar qurilgan – uch xonali va oshxonadan iborat o’qituvchilar uyi, darvozaxona va farroshlar xonasi, shuningdek, o’tin saqlash xonalari va otxona. Cherkov-maktab va qo’shimcha binolar

qurilishi uchun byudjetdan 16 383 rubl 37 tiyin, General-gubernator idorasidan 4 046 rubl 14 tiyin va Turkiston ma’naviy konsistoriyasidan 3000 rubl ajratildi (bu mablag’ podshoh Nikolay II tomonidan ajratilgan). Bundan tashqari, yana 1905 yilda byudjetdan qo’ng’iroqlar, ikonostaz, cherkov anjomlari va muqaddas kitoblarni sotib olish uchun 3 761 rubl 28 tiyin ajratildi va cherkov a’zolari tomonidan 210 rubl xayriya qilindi.

Bir vaqtlar Muqaddas Bibi Maryam himoyasi nomidagi (Pokrov) cherkov hududining sharqiy tomonida kichik o’lchamdagi cherkov maydoni va bozor bor bo’lgan. Ushbu cherkov sobor ham deyiladi.

Boshidanoq sobor binosi majmua, cherkov-maktab sifatida yaratilgan bo’lib, g’arbiy tomonda ikkita alohida kirish joyi bor edi, ulardan biri 300 kishiga mo’ljallangan cherkovga, ikkinchisi esa maktabga olib borardi. U butunlay pishiq g’ishtdan yirik toshlar poydevoriga qurilgan. Bundan tashqari, g’isht shunday yotqizilganki, uning figurali toshlari binoning tashqi qismini o’ziga xos bezakli qilgan. Ibodatxonaning tomi temir bilan qoplangan va qizil rangga bo’yalgan. Uning g’arbiy kirish eshigi tepasida xoch bilan bezatilgan kichik qo’ng’iroq minorasi ko’tarildi.

1901 yilda Rossiyada 1871 yilda ishlab chiqilgan klassik ta’limning oldingi tizimini tubdan o’zgartirishga qaratilgan o’rta maktab islohoti boshlandi. Ushbu islohotning yaratilishida taniqli shaxs - Muqaddas Sinodning bosh prokurori va Rossiya Vazirlar qo’mitasining a’zosi bo’lgan Konstantin Petrovich Pobedonostsev edi. U nafaqat muallif, balki cherkov ta’limi islohotining faol targ’ibotchisi ham edi. Uning tashabbusi tufayli Rossiya imperiyasining hamma joylarida cherkov maktablari ochilib ish boshlagan. Shuningdek, K.P. Pobedonostsevning o’zi Turkistonda cherkovlar qurilishi uchun bir necha bor xayr-ehson qilgan va mablag’ yig’gan. Uning faol yordami bilan 1880 yildan 1905 yilgacha imperiyadagi cherkov maktablari soni 150 baravardan ortiq ko’paydi.

O’sha paytlarda bunday maktablarning tashkil etilishi milliy, majburiy ta’limning eng to’g’ri yo’li ekanligi, zaruriyati davlat tomonidan ham, jamiyat tomonidan ham allaqachon e’tirof etilgani haqida hamma joyda aytilgan va yozilgan. Yangi dastur doirasida umume’tirof etilgan o’quv fanlariga tarix va geografiya kabi yangi fanlar qo’shildi. Samarqand Pokrov sobori ana shu g’oyalarni amalga oshirish maqsadida qurilgan edi. Maktabda ikkita parallel aralash sinf bo’lgan, ya’ni o’g’il va qizlar birga o’qigan. Maktab uch yil davom etgan. 1914-yilda bu maktabga 55 o’g’il va 16 qiz qabul qilingan [3;52]. Maktabni saqlash uchun yiliga 750 rubl ajratildi. Shundan 650 rubli o’qituvchilarning maoshiga, qolgani esa kichik ta’mirlash va o’quv yordamlariga sarflandi.

1907-yil 8-oktabr kuni tongda Samarqandda kuchli zilzila sodir bo‘ldi, uning davomida shahardagi ko‘plab binolar va qadimiy me’moriy yodgorliklar vayron bo‘ldi. Samarqandning eski shahar qismida Bibixonim masjidining minorasi qulab tushgan, Go’r Amir maqbarasi gumbazida esa chuqur yoriqlar paydo bo’lgandi. Pokrov sobori binosiga deyarli zarar yetmadi, ammo muqaddas temir xoch qo’ng’iroq minorasidan qulab tushdi va sinib ketdi. Qo’ng’iroq minorasi va ibodatxonaning asosiy binosi o’rtasida yoriq paydo bo’ldi [4;198].

1909 yilda, 9 yanvarda, Muqaddas Sinodning taklifiga ko’ra, Xudo onasining himoyasi nomidagi cherkov-maktab Samarqandda shaharning bosh sobori qurilgunga qadar vaqtincha shahar sobori deb o’zgartirildi. O’sha yili sobori rektori V. Motalev bosh ruhoniy darajasiga ko’tarildi. Samarqand qamoqxonasi cherkovining namozxonalari va ayollar gimnaziyasi soborga biriktirildi. Bundan tashqari, sobor ruhoniylari Feodorovskoye qishlog’i (Payariq tumani) va Panjikent shahriga tashrif buyurishib pravoslav aholisiga diniy va’zlar o’qishdi. 1909 yilga kelib ibodat qiluvchilar soni allaqachon 1677 kishini tashkil etgan va Pokrov cherkovi o’zining kattaligi bilan hammani sig’dira olmay qoldi. Shu sababli, 1912 yil 14 mayda ruhoniylar, ibodatxona oqsoqoli, savdogar V. Tumanov va ibodat qiluvchilar komissiyasi nomidan Pokrov soborida ta’mirlash ishlarini amalga oshirishni so’rab hisobot yozishdi.

1912-yil sentabrda yangi tayinlangan – Toshkent va Turkiston yepiskopi Innokentiy yeparxiya bo‘ylab sayohati chog‘ida Samarqand shahridan o‘tayotib, Muqaddas Pokrov soboriga tashrif buyurdi. Yepiskop Innokentiyga cherkov bosh ruhoniysi Mixail sobor binosini kengaytirish, uning pol va shiftini kapital ta’mirlash uchun yordam qilishni so’radilar. Yepiskop Innokentiy roziligini berdi, ammo ish qat’iy ravishda mintaqaviy arxitektor I.P.Lebedevning chizmalariga muvofiq amalga oshirilishi kerakligini tushuntirdi. Arxitektor tomonidan tuzilgan loyihaga ko’ra, binoning janubiy tomonida, Barbetnaya ko’chasi bo’ylab cherkovning maydonidan uning zaliga yo’lak qo’shib, kengligi 7,5 arshin va uzunligi 23,5 arshin bo’lgan holda kengaytirilishi kerak edi. Qadimgi janubiy devor katta teshiklar shaklida ikki joyda qisman demontaj qilinishi va ma’badning ichki hajmi ikki barobarga oshirilishi kerak bo’lgan.

Cherkov ruhoniysi Mixail Omelyustiy 1913-yil 9-may kuni cherkov a’zolari va ruhoniylarning umumiy yig’ilishini e’lon qildi. Ushbu yig’ilishda u cherkov binosini katta ta’mirlash, shuningdek, janubiy tomondagi ibodatxonani qo’shish orqali kengaytirish rejalarini e’lon qiladi. Viloyat me’mori I.P. Lebedev loyihani yakunladi va smeta tayyorladi. Cherkov hisobidan tushgan mablag’lar, podpolkovnik Nikolay Karlovich Neymark tomonidan cherkovga sovg’a qilingan yer uchastkasining sotilishi va cherkov a’zolari tomonidan obuna ro’yxati orqali to’plangan va shahar Iqtisodiy boshqarmasi tomonidan ajratilgan mablag’lar qurilish materiallari va ish xarajatlarini qoplash uchun ishlatildi. Viloyat me’mori I.P. Lebedev rahbarligida qurilish uchun eng qulay vaqt sifatida iyun yoki iyul oylarida ish boshlashga qaror qilindi. Pokrov sobori ruhoniysi Mixail va Vladikavkazlik hunarmand N.Lukashev o’rtasida ish o’sha yilning 15-sentabriga qadar yakunlanishi uchun shartnoma imzolandi. Devorlar uchun g’ishtlar M. Zeideldan sotib olindi. Soborni kengaytirish va kapital ta’mirlash ishlari 1914-yil 1-sentabrga qadar to’liq yakunlandi. Natijada, cherkov yanada go’zal va chiroyli ko’rinishga ega bo’ldi. Soborning butun ichki qismi - devorlar, shiftlar va eshiklar - moyli bo’yoq bilan ko’k rangga bo’yalgan, pollar esa firuza rangda edi.

Ibodat xizmatlari uchun maydondan tashqari, soborda yana to’qqizta xona mavjud: 1. ruhoniy uchun xona, 2. ikkinchi ruhoniy uchun xona, 3. panomar uchun xona, 4. suvga

yuvinish uchun xona, 5. ofis, 6. oshxona, 7. yarim podval xona, 8. qurbongoh xizmatchisi uchun xona, 9. Shamlarni saqlash xonasi [6;10]. 1917 yilgi inqilobdan so’ng mamlakatda tub o’zgarishlar yuz bera boshladi. Yangi hukumatning birinchi farmonlaridan biri cherkov, davlat va maktabni ajratish to’g’risidagi 1918 yilgi farmon edi. 1922-yilda esa Pokrov cherkovi huzuridagi cherkov maktabi tugatildi. O’shandan beri u oddiy cherkov yoki sobor deb atala boshlandi. Shahardagi barcha cherkovlar boshi kesildi (cherkovlarning bosh qo’ngiroq minorasi buzib tashlanishi) va yopilganida, Pokrov sobori omon qolgan yagona sobor edi, lekin uning hududining uchdan ikki qismi, unga tegishli binolar bilan birga turar-joy binolari qurish uchun tortib olindi [5;4].



1920-yillardagi ateistik siyosat natijasida yeparxiyadagi cherkovlar turli bahonalar bilan ommaviy ravishda yopiladi, ruhoniylar ishsiz va huquqsiz qoladilar. Toshkent va O‘rta Osiyo arxiyepiskopi Innokentiy hokimiyat bosimiga dosh berolmay yeparxiyani tark etadi va shu tariqa butun Turkistonni qamrab olgan ulkan hudud boshqaruvsiz qoladi. Natijada, 1930 yilga kelib, O’zbekiston hududida Samarqanddagi faqat bitta ibodatxona – Xudo onasining himoyasi nomidagi cherkov ishlagan.

1945-yilning aprel oyida, Pokrov cherkovida II jahon urushida Sobiq Ittifoqning fashistlar Germaniyasi ustidan g’alaba qozonishi uchun ibodat marosimi o’tkazilgan [7;160]. 1930-yillarda yopilgan Samarqand viloyati hududdidagi cherkovlardan ko’plab ikonalar Pokrov soboriga olib kelingan va uyerda saqlangan. 1960-yillarda tarix takrorlandi: Samarqanddagi Avliyo Nikolay, Kattaqo’rg’ondagi Avliyo Vladimir va Bulung’urdagi Arxangel Mixail ibodatxonalarining barchasi yopildi. Bu safar ham ularning ikonalari Pokrov soboriga o’tkazildi [8;10]. Faqatgina Kattaqo’rg’on cherkovidan 116 xil piktogramma va to’rtta bayroq Pokrov cherkoviga ko’chirildi. 1990-yillarga qadar ushbu piktogramma va ikonalarning barchasi Pokrov sobori devorlarida osig’liq turdi. Mustaqillikdan so’ng, cherkovlar qayta tiklana boshlaganda esa bu piktogrammalarning ba’zilari yana oldingiz

joylariga qaytarildi. 1998-yil boshida cherkov yana o’z diniy faoliyatini to’liq yurita boshladi va Samarqandning pravoslav aholisini diniy ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. Hozirda cherkovda ruhoniy Roman Zagrebelniy xizmat qiladi.

Xulosa

Samarqand shahridagi Muqaddas Xudo Onasining himoyasi (Pokrov) cherkovi tarixi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan ma’muriy-harbiy va diniy siyosat bilan bevosita bog’liq holda shakllandi. Yangi shahar qismi barpo etilishi, pravoslav aholining ortishi hamda fuqarolik cherkoviga ehtiyoj tug’ilishi mazkur ibodatxona qurilishining asosiy omillari bo’ldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, Pokrov cherkovi nafaqat diniy markaz, balki cherkov-maktab majmuasi sifatida imperiyaning ma’rifiy va ideologik siyosatini amalga oshirishda muhim vosita bo’lib xizmat qilgan. Uning qurilishi markaziy diniy boshqaruv organlari, xususan Muqaddas Sinod hamda imperator hokimiyati tomonidan qo’llab-quvvatlangan bo’lib, moliyalashtirish tizimi davlat mablag’lari va mahalliy xayriya mablag’larining uyg’unligiga asoslangan. Me’moriy jihatdan ibodatxona Turkiston sharoitiga moslashtirilgan g’ishtin inshoot sifatida barpo etilib, shahar urbanistik tuzilmasida alohida blokni egallagan. Cherkov-maktab sifatida faoliyat yuritishi esa uni oddiy ibodat maskanidan ko’ra kengroq ijtimoiy institutga aylantirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Духовно-литературно-исторический журнал «Восток Свыше». Выпуск XXXVII, 2015, № 2.

2. См. Справочную книгу Самаркандской области, 1905 год. Издание Самаркандского Обл.Стат. комитета 1905 г. Типография «Товарищества» Стр. 48.

3. См. Справочник и адрес-календарь Самаркандской области, 1914 год. Издание Самаркандского Обл.Стат. комитета Типо. Лит. Т-во Б.А. Газаров.1914 г. Стр.52

4. См. Справочную книгу Самаркандской области, 1912 год. Издание Самаркандского Обл.Стат. комитета 1912 г. Типо-литография Б.Газаров и К. Слиянов. Стр. 198.

5. Самаркандский областной государственный архив. Ф. 67, оп. 1, д. 20, л. 4.

6. Клировые документы Покровского собора за 1957 год. (Архив Покровского собора)

7. См.: Патрахин Л., прот., Лай П., прот. По стопам Апостола Фомы. Воронеж, 2009. С. 160.

8. См. Клировые документы Покровского собора за 1962–1963 годы. (Архив Покровского собора)